

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**



TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

YAKUNIY HISOBOT



BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
Davlat oliy ta'lim tashkiloti

70410901 – Biznesni boshqarish (Master of Business Administration)
Magistratura



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

**70410901 – Biznesni boshqarish (Master of Business
Administration)**

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)


EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



Rais: NURALIYEVA NARGIZA MAMADIYOROVNA

Toshkent shahridagi Puchon universiteti

falsafa doktori (PhD)



A'zo: VLASIOS SARANTINOS

University of the West of England

Iqtisod magistri, professor

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260021
Xulosa raqami	883
Xulosa sanasi	20.06.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI" DAVLAT MUASSASASI
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Buxoro viloyati, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Biznesni boshqarish (Master of Business Administration)
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	70410901
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	—
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Davlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	70410901 – Biznesni boshqarish (Master of Business Administration)
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	70410901 – Business Administration (MBA)
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	70410901 – Деловое администрирование (MBA)
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kunduzgi
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	120 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	2 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	7-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	Biznes boshqaruvi magistri (MBA)
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	—
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Buxoro viloyati, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofig / muvofig emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofig / qisman muvofig / muvofig emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

1-bob bo'yicha MBA ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur tashkiliy-boshqaruv va ichki sifat tizimi shakllantirilgan bo'lib, yo'nalish muvofiq deb topilgan. Ta'lim dasturi ichki me'yoriy hujjatlar, mas'ul tarkibiy bo'linmalar, ilmiy kengashlar, sifatni ta'minlash tartiblari hamda aniq qaror qabul qilish jarayonlari bilan qo'llab-quvvatlanadi. MBA ta'lim dasturi uchun boshqaruvning professional darajada tashkil etilgani muhim ahamiyat kasb etadi, chunki dastur menejment va yetakchilik kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lib, uni amalga oshiruvchi boshqaruv tizimi ham zamonaviy boshqaruv tamoyillariga asoslanishi lozim. Istiqbolli rejalashtirish va sifat monitoringi mexanizmlari yo'lga qo'yilgan bo'lib, ular boshqaruvning tizimli tashkil etilganligini tasdiqlaydi. Manfaatdor tomonlar ishtiroki hamda sifatni ta'minlash jarayonlarini yanada batafsil hujjatlashtirish tavsiya etilgan. Tashkiliy-boshqaruv va ichki sifat tizimi ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur institutsional asoslarni yaratgan hamda uni sifatli amalga oshirish uchun ishonchli tashkiliy zaminni ta'minlaydi.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

2-bob bo'yicha ta'lim dasturi mazmunining asosiligi barcha mezonlar kesimida muvofiq deb topilgan. MBA ta'lim dasturi aniq tuzilishga ega bo'lib, uning maqsadlari va kutilayotgan o'quv natijalari o'zaro muvofiqlashtirilgan. Ta'lim dasturining muddati, kredit hajmi va o'quv yuklamasi aniq belgilangan bo'lib, dastur ikki yil davom etadi hamda 120 ECTS krediti yoki 3600 akademik soatdan iborat. O'quv rejasida majburiy va tanlov fanlari, nazariy ta'lim, amaliy mashg'ulotlar hamda ilmiy-tadqiqot faoliyati o'zaro muvozanatli taqsimlangan. MBA ta'lim dasturi uchun bunday yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi, chunki biznes boshqaruvi kompetensiyalari nazariy bilimlar, amaliy keys-tahlillar va real biznes muammolarini

hal etish ko'nikmalarining uyg'unligi asosida shakllanadi. Tanlov fanlarining mavjudligi talabalarga o'z kasbiy yo'nalishini shakllantirish imkonini beradi. Ta'lim dasturi mazmuni zamonaviy menejment tamoyillariga asoslangan bo'lib, uning dolzarbligini ta'minlaydi. Ta'lim dasturi mazmuni aniq tuzilgan, belgilangan maqsadlarga muvofiq hamda nazariy va amaliy komponentlar uyg'unligida tizimli shakllantirilgan.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi

3-bob bo'yicha o'quv jarayonini tashkil etish va baholash tizimi barcha mezonlar kesimida muvofiq deb topilgan. Taqdim etilgan dalillar MBA ta'lim jarayonining aniq va tizimli tarzda tashkil etilganligini tasdiqlaydi. Ta'lim dasturi o'quv reja, fan dasturlari, o'qitish usullari, baholash tartiblari hamda manfaatdor tomonlar ishtiroki orqali qo'llab-quvvatlanadi. Ish beruvchilar va soha mutaxassisleri o'quv rejasini ishlab chiqishda ishtirok etgan bo'lib, bu ta'lim dasturining zamonaviyligi va mehnat bozori ehtiyojlariga mosligini ta'minlaydi. MBA ta'lim dasturi uchun bunday yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi, chunki biznes ta'limi real bozor talablari bilan uzviy bog'liq bo'lishi lozim. O'qitish usullarining xilma-xilligi, jumladan keystadilar, loyihaviy ishlar va amaliy mashg'ulotlardan foydalanilishi, shuningdek baholash tartiblarining shaffofligi o'quv natijalariga erishishni tizimli ravishda qo'llab-quvvatlaydi. O'quv jarayoni va baholash tizimi aniq tuzilgan, ish beruvchilar ishtirokida shakllantirilgan hamda amaliyotga yo'naltirilgan holda tashkil etilgan.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi

4-bob bo'yicha talabalar faoliyatini tartibga solish va qo'llab-quvvatlash tizimi barcha mezonlar kesimida muvofiq deb topilgan. MBA ta'lim dasturi talabalari uchun qabul talablari, talabalarni ro'yxatga olish, ma'lumotlardan foydalanish, o'qishni ko'chirish va qayta tiklash, akademik mobillik, o'qish natijalarini tan olish hamda talabalarni qo'llab-quvvatlash xizmatlari yo'lga qo'yilgan bo'lib, ular ichki me'yoriy hujjatlar va milliy talablar asosida tartibga solingan. Mazkur tartiblarning tizimli shakllantirilgani talabaning ta'lim traektoriyasini huquqiy jihatdan himoya qiladi hamda qabul jarayonining shaffofligini ta'minlaydi. MBA ta'lim dasturi ko'pincha ish tajribasiga ega tinglovchilarni qamrab olishi sababli, akademik mobillik va o'qish natijalarini tan olish mexanizmlari alohida ahamiyat kasb etadi. Talabalarni qo'llab-quvvatlash xizmatlarining mavjudligi ular uchun qulay ta'lim muhitini yaratadi. Talabalar faoliyati yo'nalishi shaffof, adolatli va normativ-huquqiy

asoslarda tashkil etilgan bo'lib, talabalar huquq va manfaatlarining himoyasi ta'minlangan.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi

5-bob bo'yicha inson resurslari salohiyati barcha mezonlar kesimida muvofiq deb topilgan. MBA ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur inson resurslari shakllantirilgan bo'lib, ta'lim jarayoni tegishli malaka, professional tajriba va ilmiy darajaga ega professor-o'qituvchilar tomonidan ta'minlanadi. MBA ta'lim dasturi uchun professor-o'qituvchilarning nazariy bilimlar bilan bir qatorda real biznes va boshqaruv tajribasiga ega bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi, chunki amaliy biznes tajribasi tinglovchilarda real vaziyatlarni tahlil qilish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Universitetda xodimlarni tanlash, ishga qabul qilish, lavozimga tayinlash, kasbiy rivojlantirish hamda faoliyatini baholash bo'yicha tizimli mexanizmlar yo'lga qo'yilgan bo'lib, ular inson resurslari salohiyatining barqarorligini ta'minlaydi. Kadrlarni rag'batlantirish tizimi professor-o'qituvchilarning kasbiy faolligini oshirishga xizmat qiladi. Inson resurslari bazasi MBA ta'lim dasturini sifatli amalga oshirish uchun yetarli akademik va professional salohiyatni ta'minlaydi.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

6-bob bo'yicha moddiy-texnik ta'minotning yetarlilik darajasi barcha mezonlar kesimida muvofiq deb topilgan. Ta'lim jarayonini qo'llab-quvvatlash uchun o'quv binolari, auditoriyalar, kompyuter xonalari, axborot-resurs markazi, elektron ta'lim platformalari, sport inshootlari, madaniy maydonlar hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini o'z ichiga olgan keng moddiy-texnik baza shakllantirilgan. 513-xona aynan Biznes boshqaruvi (MBA) ta'lim dasturi uchun ajratilgan bo'lib, zamonaviy kompyuterlar va boshqa texnik vositalar bilan jihozlangan. Bu ta'lim dasturi uchun maxsus o'quv muhitining yaratilganligini tasdiqlaydi. Elektron ta'lim platformalari va raqamli resurslarning mavjudligi MBA ta'lim dasturi uchun alohida ahamiyat kasb etadi, chunki zamonaviy biznes ta'limi raqamli vositalar, biznes-simulyatsiyalar va onlayn axborot resurslari bilan uzviy bog'liq. O'quv xonalari talabalar kontingentiga mos ravishda ta'minlangan bo'lib, bu ta'lim jarayonining sifatli tashkil etilishini ta'minlaydi. Moddiy-texnik ta'minot mazkur yo'nalish bo'yicha sifatli biznes ta'limini tashkil etish uchun yetarli va ishonchli asos yaratadi.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:

- ✓ Manfaaddor tomonlar (ish beruvchilar, biznes hamjamiyati) ishtirokini kengaytirish va uni hujjatlar bilan tizimli tasdiqlash tavsiya etiladi.
- ✓ Dastur mazmunini zamonaviy biznes amaliyoti, keys-tahlil va biznes-simulyatsiyalar bilan yanada boyitish maqsadga muvofiq.
- ✓ Elektron ta'lim resurslari va biznes ma'lumotlar bazalaridan foydalanishni kengaytirish talab etiladi.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ Ish beruvchilar va biznes hamjamiyati bilan hamkorlikni kengaytirib, ularning ishtirokini hujjatlashtirish.
- ✓ O'quv jarayoniga keys-stadi, loyihaviy ish va biznes-simulyatsiyalarni ko'proq integratsiya qilish.
- ✓ Professor-o'qituvchilarning amaliy biznes tajribasini oshirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.
- ✓ Zamonaviy elektron ta'lim platformalari va biznes resurslariga kirishni kengaytirish.

8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Baholash natijalariga ko'ra, "Buxoro davlat universiteti" davlat muassasasida 70410901 – "Biznesni boshqarish (Master of Business Administration)" magistratura ta'lim dasturi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar, o'quv-uslubiy materiallar, tashkiliy-boshqaruv mexanizmlari, kadrlar salohiyati hamda moddiy-texnik baza kompleks tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, dasturni amalga oshirish uchun zarur institutsional asoslar, malakali kadrlar tarkibi, 120 ECTS hajmidagi aniq tuzilgan o'quv dasturi hamda maxsus ajratilgan xona (513-xona) bilan ta'minlangan moddiy-texnik baza shakllantirilgan; dastur ishlab chiqishda ish beruvchilar va soha mutaxassislari ishtirok etgan. Tashkiliy-boshqaruv, ta'lim dasturi mazmuni, o'quv jarayoni, talabalar faoliyati, inson resurslari hamda moddiy-texnik ta'minot yo'nalishlarining barchasi belgilangan mezonlarga muvofiq deb topildi. Aniqlangan ayrim jihatlar — manfaaddor tomonlar ishtirokini kengaytirish va dastur mazmunini zamonaviy biznes amaliyoti bilan boyitish — dasturni amalga oshirishga to'sqinlik

qilmaydigan, asosan takomillashtirishga qaratilgan tavsiyaviy xarakterga ega. Umuman olganda, ta'lim dasturi belgilangan mezonlarga mos keladi. Ekspert komissiyasi tomonidan ta'lim dasturi MUVOFIQ deb baholandi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	02.07.2026-yil
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	4-son
Yakuniy qaror:	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaee.uz
www.nqaee.uz



@nqaeeuz



@nqaeeuzbot

